

**O'zbekiston Respublikasi axborot
texnologiyalari va kommunikatsiyalarini
rivojlantirish vazirligi**

**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg'ona filiali**

“Kompyuter injiniringi” fakulteti

“Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrası

MUSTAQIL ISH

Mavzu: Huquq normalari

Bajardi:

610- 15 guruh talabasi

Xaydarov A.

Qabul qildi:

Rustamov I.

Farg'ona - 2016

Mavzu: Huquq normalari

REJA:

- 1. Huquq normalarining tushunchasi, belgilari va tuzilishi.***
- 2. Huquq normalarining turlari***

1. HUQUQ NORMALARINING TUSHUNCHASI, BELGILARI VA TUZILISHI.

Huquq normalari (norma So`zi - lotincha bulib, uzbekcha qoidadir). Har bir davlatning huquq tizimi normalaridan, huquq institutlaridan va iborat.

Huquq normalari — bu davlat tomonidan bajarilishi barcha kishilar uchun majburiy bo`lgan, kishilar o`rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarning tartibga soluvchi qoidalar yig`indisidir. Huquq normalari tabiiy huquq va pozitiv xuquqlardan iborat. Tabiiy huquq insonga tabiat tomonidan beriladi.

Masalan: insonning yashash erkinlik va shaxsiy daxilsizlik huquqlari. Pozitiv huquq esa davlat tomonidan qabul qilinadi. Huquq normasi bu alohida olingan turmush qoidasidir. Masalan: O`zRsida huquqning asosini O`zRning Konstitutsiyasi tashkil etadi. Konstitutsiyaning har bir alohida olingan huquqiy normadir.

Normalarining belgilari quyidagilardan iborat:

- 1) normalari davlat tomonidan o`rnatiladi va barcha xalqlarning qonuniy irodasini ifodalaydi;**
- 2) uning mazmuni jamiyatning iqtisodiy tuzilishi bilan belgilanadi;**
- 3) ularning bajarilishi barcha kishilar uchun umummajburiydir;**
- 4) davlatning zo`rlik kuchi bilan amalga oshiriladi**
- 5) kishilar o`rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibbga soladi;**
- 6) fuqarolarga huquq va burch belgilaydi;**
- 7) uzoq muddat qo`llaniladi va talabga javob bermasa davlat vakolatli organlari tomonidan bekor qilinadi;**
- 8) vakolat beruvchi, majbur etuvchi va to`ldiruvchi xarakterda bo`lishligi;**
- 9) tizimida qonunlar, farmonlar va farmoyishlar, qarorlar va boshqa shakilda faqat yozma holda qabul qilinadi;**

10) normalari bir biri bilan uzviy borliq bo`lib, davlatning yagona tizimini tashkil qiladi;

11) davlat tomonidan qabul qilinadi va qo`riqlanadi; huquqbuzarlik oqibatiga qarab turli jazo choralari qo`llaniladi.

Huquqiy normaning tuzilishi 3 qismdan: gipoteza, dispozitsiya sanksiyadan iboratdir.

Gipoteza (grekcha-faraz qilishdir) huquqiy normaning birinchi qismi bo`lib, u qo`llaniladigan shart— sharoit vaqtni bildirad. Gipotezaning ikki turi mavjud bo`lib, aniqlangan gipoteza va to`la aniqlanmagan gipotezadir. Aniqlangan gipoteza — huquqiy normada ko`rsatilgan huquq va majburiyatlarning paydo bo`lishi, o`zgarishi, yoki bekor bo`lishi aniq, ko`rsatiladi. To`la aniqlanmagan gipotezada huquqiy normaning kuchga kirishi va qo`llash tartibi ko`rsatilmaydi.

Dispozitsiya (lotincha so`z bo`lib —mazmun degan ma`noni bildiradi). Bu huquq normasining mazmuni, qullash tartibi va burchlari ko`rsatiladi.

Dispozitsiyaning quyidagi turlari bor: 1) imperativ (aniq ko`rsatilgan) dispozitsiya-bunda huquqiy normaning matnida dispozitsiya aniq ko`rsatiladi.

Masalan, O`zRsi Jkning maxsus qismidagi moddalar; 97 — modda qasddan odam o`ldirish, 118 — modda nomusga tegish, 164 —modda bosqinchilik va boshqalar;

2) nisbiy belgilangan dispozitsiya. Bunda hukuqiy normaning mazmunini taraflar aniqlaydi va uzgartiradi. Jumladan, O`zRsi Mkning 228 — moddasida homilador ayollarni, bola emizuvchi va uch yoshga to`lmagan bolasi bor ayollarni ularning roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga dam olish kunlari ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yubormaydigan deb ko`rsatilgan;

3) dispozitiv (qayta tiklovchi) — yoki vakolat beruvchi dispozitsiya-bunda huquqiy norma tomonlarga o'z huquq va burchlarini belgilab beruvchi vakolatini beradi. Masalan, O`zRsi MKning 72 — moddasida «Meqnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o`rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo`yicha ishni ichki meqnat tartibiga bo`sgun holda taraflar kelishuvi, shuningdek mahnat to`g`risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish hakidagi «kelishuvlar» deb ko`rsatilgan;

4) blanket dispozitsiyasi bunda huquqiy normalar tegishli organga xulq — atvor qoidasini belgilash huquqini beradi. Jumladan: O`zR MKning Mehnat xaqining miqdorini ish beruvchi bilan xodim kelishuviga asosan belgilanadi. Mehnat haqi qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdordan oz bo`lishi mumkin emas va uning eng ko`p miqdori biron bir tarzda cheklanmaydi»-deb kursatilgan.

Huquq normasining uchinchi qismi sanksiyadir. (sanksiya - lotincha chora deganidir). Sanksiyada huquq normalari talablariga rioya qilmaslik natijasida davlat tomonidan qo`llaniladigan majburiy choradir. Sanksiya huquq nomasining yuridik kuchini barcha fuqarolar uchun majburiyligini ifodalaydi. Sanksiyalar huquq normalarining xarakteriga qarab intizomiy, ma`muriy fuqarolik, jinoiy-huquqiy va boshqa turlarga bo`linadi. Xodimlarga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi intizomiy jazo choralari qo`llaydi. Ma`muriy huquqbuzarlik sodir qilganda O`zR JK ko`rsatilgan jazo choralari beradi. Jinoyat sodir qilinganda O`zR JKda belgilangan jazo choralari qo`llaniladi.

Fuqarolik — huquq normalari buzilganda yetkazilgan zararni undirish, tuzilgan shartnoma va bitmlarni qonunsiz deb topish choralari belgilangan.

Sanksiyalar huquq normalarining ifodalanishiga quyidagi uch turga bo`linadi: nisbiy belgilangan sanksiyalar (masalan, 6 —oydan 25 —yilgacha ozodlikdan mahrum qilish), absalyut (mutloq,) belgilangan sanksiya (70 000 so`m jarima), muqobil sanksiya (masalan, moddada yo ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq, jazosi belgilangan). Bitta yuridik moddada huquqiy norma tuzilishining u chala qismi bo`lmasligi mumkin. Modda bilan huquq normasi o`rtasida farq bor. Chunki huquq normasining tuzilishi deganda bu uch qismning qayerda va qanday darajada ifoda etilishidan qat`i nazar, ular o`rtasidagi mantiqiy bog`lanish va uning mazmuni tushuniladi.

Huquq normasining mantiqiy tuzilishi —bu obyektiv hodisadir. Chunki har bir huquq normasi kishilar o`rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun tegishli qoidalar belgilab, ularning kishilardan bajarilishini talab qiladi. Huquq normasining mantiqiy tuzilishi 3 qismdan — gipoteza, dispozitsiya va sanksiya tashkil topishi amaliy ishda ishlovchi xodimlarni barcha harakatdagi normativ hujjatlarni atroflicha analiz qilishni talab etadi, qonun va normativ hujjatlarning hayotga qo`llash uchun mavjud bo`lgan sharoitni, uning mazmunini bilishi va ularga rioya qilinmasa hayotda ishlar noto`g`ri hal qilinadi.

2. Huquq normalarining turlari.

Jamiyatda ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini tartibga soluvchi huquq normalari mavjud. Bulardan tug`ri foydalanish uchun huquq normalari quyidagi turlarga bo`linadi:

Birinchidan, huquq normalari jamiyatda kishilar o`rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tartibga solish predmeti va usuliga qarab turli huquq sohalariga bo`linadi. Masalan konstitutsiyaviy huquq normasi, ma`muriy normasi, fuqarolik huquq normasi, jinoyat huquq normasi mehnat huquq normasi, moliya huquq normasi va bopshalar.

Ikkinchidan, huquq normalari qaysi davlat organi chiqarishiga — ya'ni subyektiga qarab qonunlarga (davlat Konstitutsiyasi va joriy qonunlar) va qonun osti aktlariga (farmon, karor, farmoyish va boshqalarga) ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi oliy organ — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bo'lib, u faqat qonun qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va ijro etuvchi davlat hokimiyat boshlig'i bo'lib, qarorlar, farmonlar va farmoyishlar qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasining turli vazirliklari, boshqarmalari, davlat qo'mitalari — buyruq, qo'llanma, yo'riqnoma va nizomlar, viloyat, shahar va tuman Xalk, Deputatlari Kengashlari - qaror va farmoyishlar, ularni boshqaradigan hokimlar esa qarorlar chiqaradi.

Uchinchidan, huquq normalari mazmuniga ko'ra — kishilarni majbur etuvchi, man etuvchi va vakolat etuvchi normalarga bo'linadi. Majbur etuvchi huquq normalari bu normalarning bajarishga majbur etadi. Masalan, O'zR oila Kodeksining 39 — moddasiga asosan «xotinning homiladorligi vaqtida va bola tug'ilgandan keyin bir yil mobaynida er — xotinning rozilgisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zgatishga rozi emas», — deb ko'rsatilgan. Man etuvchi huquq normalari kishilardan huquq normasida ko'rsatilgan qoidalarni man etadi. Jumladan, O'zR JKning 50-moddasiga asosan, ayblanuvchi himoyachi talab qilishga qaqli, sud unga himoyachi tayinlashga majbur. Vakolat beruvchi huquq normalari kishilarga tegishli vakolatlar beradi.

O'zR FKning 164 — moddasiga binoan, mulk egasiga qonun asosida mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlari berilgan.

To'rtinchidan. huquqiy normalar ularda bayon etilgan qoidalarining mazmuni va xarakteriga qarab qat'i (imperativ) va dispozitiv (to'ldiruvchi) huquq normalarida huquqiy qoidaning talabi

qat'i tarzda ifodalanadi. Masalan, O`zR FKning 23 —moddasida «Fuqarolarning huquq layoqatidan yoki muomala layoqatidan to`la yoki qisman voz kechishi layoqati yoki muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitmlar o`z -o`zidan huquqiy emasdir», -deb ko`rsatilgan. Dispozitiv (to`ldiruvchi) huquq normalarida taraflar kelishib o`z huquq va burchlarini hal qiladi.

Masalan, O`zR FKning 547 — moddasida, agar qonun hujjatlari yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo`lsa, ijaraga beruvchi ijaraga topshirilgan mol —mulkini o`z hisobidan kapital ta`mirlashi shart deyilgan.

Beshinchidan, huquq normalari harakat qilish vaqtiga qarab doimiy va vaqtinchalik normalarga bo`linadi. Doimiy normalari deganda, harakatda bo`lgan barcha normalari vakolatli davlat organi rasman bekor qilingungacha bo`lgan huquq normalariga aytiladi. Vaqtinchalik normalari urush vaqtida, tabiiy ofatlar yoki boshqa maxsus masalalar bo`yicha qabul qilingan huquq normalaridir.

Oltinchidan, huquq normalari harakat etish joyiga qarab — O`zbekiston Respublikasi va maqalliy joylar hududida amal qiluvchi hukuqiy normalarga bo`linadi.

Yettinchidan, huquq normalari —ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga qarab, regulyativ (tartibga soluvchi) va ijtimoiy munosabatlarni ko`riqllovchi normalarga bo`linadi. Regulyativ normalarga ijtimoiy munosabat ishtirokchilariga va burch beruvchi huquq normalari kiradi. Ijtimoiy munosabatlarni qo`riqllovchi normalarga huquqiy javobgarlik va subyektiv huquqarni himoya qiluvchi hukuk normalari kiradi. Bunga O`zbekiston Respublikasi jinoyat - hukuk normalari kiradi.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «O`zbekiston», 2003
Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom. T., «O`zbekiston», 1996.
2. Saidov A. Tadjixanov U. Davlat va huquq asoslari. T., 1999.
3. Xolmo`minov Q. Davlat va huquq nazariyasi, o`quv qo`llanma. Toshkent, 2000.
4. Boboyev H.B., Odilovqoriyev H.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik, Toshkent, 2000
5. www.ziynet.uz